

# Qoraqalpoq'iston Respublikasi statistika boshqarmasi




## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YILNING  
YANVAR-IYUL OYLARIDA

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 773,9** mlrd. so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi **1060,8** mlrd. so‘mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **109,2 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari



## Dastlabki ma’lumotlar


2023- yil yanvar-iyul

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so‘m	2022- yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6 773,9</b>	<b>109,2</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	384,6	123,9
Moliyaviy xizmatlar	1 576,9	115,5
Transport xizmatlari	1 666,9	104,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	830,6	103,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	184,9	102,9
Savdo xizmatlari	1 450,2	109,7
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	154,6	105,8
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	350,5	104,1
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	83,6	110,4
Ijara xizmatlari	124,2	100,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	203,0	104,5
Shaxsiy xizmatlar	273,8	106,5
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	95,5	111,1
Boshqa xizmatlar	225,2	105,3

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bu xizmatlarning ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,3 %**), savdo xizmatlari (**21,4 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,7 %**) bo'yicha qayd etildi.

## Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi **1,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **30,1 %** ini tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko‘rsatgichga ega bo‘lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o‘shishi va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2023- yilning yanvar-iyul oylarida yuqori o‘shish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**23,9 %**), moliya xizmatlarida (**15,5 %**), me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**11,1 %**), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**10,4 %**), savdo xizmatlari (**9,7 %**), qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi (**0,2 %** ga) unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi.

**Dastlabki ma’lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlarini taqqoslash, % da**



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etilgan – **30,1** %. Ta’lim sohasidagi xizmatlar o‘shish sur‘atlarida pasayish kuzatilgan – **20,6** %.

Info

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,4 %** ni tashkil etib, bu **1450,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1190,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **20,8 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari





## Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **78,6 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **13,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,2 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar-iyul oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo ulushi **79,3 %** ga yetdi.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar**  
(2023- yil yanvar-iyul oylarida)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1576,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1297,9** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,3** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **22,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **279,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **15,5** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **130,0** % ni tashkil etgan.

### **Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,8 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-iyul oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy faoliyat**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **83,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **14,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2022- y. Yanvar-iyul**

**2023- y. Yanvar-iyul**




## Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **93,4** % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2022-y. yanvar-iyul



2023-y. yanvar-iyul



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,5** % ni tashkil etgan.


**Dastlabki ma'lumotlar**

**2023- yil yanvar-iyul**



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblangan **ta‘lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta‘lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi **350,5** mlrd. so‘mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,2** % ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati **104,1** % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul




**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.  
Yanvar-iyul

2023- y.  
Yanvar-iyul



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

Xizmatlar jami hajmidagi  
ulushi, % da

O‘sish sur‘ati, % da

**Dastlabki ma'lumotlar**


**2023- yil yanvar-iyul**

**Info**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**





Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul


2022-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **39,5** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2022- y.  
yanvar-  
iyul

Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2023- y.  
yanvar-  
iyul



2023- yilning yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **84,1** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,2** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘sish sur‘ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>6 773,9</b>	<b>109,2</b>	<b>115,3</b>
Nukus sh.	2 835,3	109,4	109,2
tumanlar:			
Amudaryo	352,8	111,9	116,1
Beruniy	337,6	108,5	113,2
Bo‘zatov	41,1	122,1	115,2
Qorao‘zak	114,8	113,9	118,3
Kegeyli	133,8	115,4	112,2
Qo‘ng‘irot	956,9	101,1	145,3
Qonliko‘l	97,4	111,8	123,9
Mo‘ynoq	82,1	112,0	117,2
Nukus t.	147,2	112,1	112,9
Taxiatosh	183,0	125,3	110,0
Taxtako‘pir	99,3	109,6	118,1
To‘rtko‘l	507,2	111,0	110,4
Xo‘jayli	298,9	110,0	110,7
Chimboy	198,2	106,6	114,3
Shumanay	94,2	114,7	112,5
Ellikqal‘a	294,1	111,2	110,2


## Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar-iyul oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – **0,6 %** (2022- yilning yanvar-iyul oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-iyul

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

3418,5  
ming so'm

515,2  
ming so'mga

2023- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3418,5** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**

2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2903,3** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,7 %** da qayd etilgan.



107,7 %

O'sish sur'ati